


2019 yilning fevral oyida O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2019 yilning fevral oyida mamlakat iste`mol bozorida tovarlar va xizmatlar narxi o`rtacha 1,6 %ga oshdi.

O`zbekiston Respublikasi bo'yicha umumiy iste`mol narxlari indeksi (INI), %



Oy davomida mahsulotlar narxi 1,8 %ga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 2,0 %, noziq-ovqat mahsulotlari 1,5 %ga oshdi. Xizmatlar narxi esa 0,8 %ga qimmatlashdi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha iste'mol narxleri indeksi o'tgan oyga nisbatan, %

2018 yil fevral

2019 yil fevral

Yig'ma INI (barcha tovar va xizmatlar)	101,1	101,6	Yig'ma INI (barcha tovar va xizmatlar)
Oziq-ovqat mahsulotlari	101,1	102,0	Oziq-ovqat mahsulotlari
Nooziq-ovqat mahsulotlar	101,3	101,5	Nooziq-ovqat mahsulotlar
Xizmatlar	100,7	100,8	Xizmatlar


Ma'lumot uchun: 2018 yilning fevral oyida mahsulotlar narxleri 1,2 %, xizmatlar 0,7 %ga oshgan. Oziq-ovqat mahsulotlari 1,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlari esa 1,3 %ga qimmatlashgan.

Oy davomidagi narxlar o'zgarishining tuzilmasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yilning fevral oyida har bir yirik guruhning salmoq vaznlarini hisobga olgan holda ta'sir darajasi bo'yicha ustunlik oziq-ovqat mahsulotlari guruhiga taalluqlidir (ta'siri 0,9 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.)).




Asosiy turdagi tovarlar guruhi narxlarining o'zgarishi va ularning umumiy INI o'sishiga ta'sir ulushi, f.d.

2018 y.
fevral



2019 y.
fevral





Ma'lumot uchun: 2018 yilning fevral oyida ham umumiy narxlar o'sishiga ta'sir darajasi bo'yicha yaqqol ustunlik bilan bo'lmasada, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga to'g'ri kelgan (oziq-ovqat mahsulotlari 0,5 f.d., nooziq ovqat mahsulotlari 0,4 f.d. va xizmatlar 0,2 f.d.).

Fevral oyida o'tgan yilning oxiriga nisbatan har bir guruhning umumiy INI o'sishiga qo'shgan hissasi quyidagi diagramma shaklida ko'rsatib o'tilgan:





Asosiy guruhlar bo'yicha tovar va xizmatlarning narxlari o'sishi va ularning umumiy INIga ta'sir ulushi (2018-2019 yil fevral oylari)

- o'tgan oyga nisbatan -



- o'tgan yilning dekabriga nisbatan -




Foiz nisbatida 2019 yil fevral oyidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining ko'tarilishi oy davomidagi INI o'sish sur'atida 55,7 %ni tashkil etib, 2018 yil fevral oyida ushbu ko'rsatkich 44,3 %ga teng bo'lgan. 2019 yilning fevral oyidagi nooziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun pullik xizmatlar narxlarining ta'siri 2018 yil fevral oyidagi ko'rsatkichga nisbatan pastroq bo'lgan. O'tgan yilning dekabr oyiga nisbatan asosiy guruhlar bo'yicha iste'mol narxlari o'zgarishi va ularning umumiy INIga ta'siri bo'yicha ham yuqoridagi holatni takrorlaydi.

2019 yilning yanvar-fevral oylaridagi oziq-ovqat narxlarining oshishi yig`indisi va uning umumiy narxlar o`shidagi ulushi 68,5 % (2018 yilning yanvar-fevral oylarida esa 52,6 %), noziq-ovqat mahsulotlari 22,2 % (mos davrda 34,2 %), xizmatlar 9,3 % (13,2 %)ni tashkil etgan.

Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlarini indeksi

yuqorida qayd etilganidek, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini oy davomida 2,0 %ga qimmatlashganligi umumiy INI ko`rsatkichining 0,9 f.d.da oshishiga sabab bo`ldi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi, %




Ma`lumot uchun: 2019 yilning fevralida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oy davomidagi o`shish sur`ati joriy yilning yanvar oyidagi ko`rsatkichga nisbatan pastroq bo`ldi (fevralda 2,0 %, yanvarda esa 2,8 %). Ushbu guruh mahsulotlari narxlarining yanvar oyidagi o`shish sur`ati umumiy INI ko`rsatkichiga 1,2 f.d.da ta`sir etgan bo`lsa, joriy

yilning fevral oyida qayd etilgan natijalarga ko`ra, ta`siri jihatidan umumiy INIning o`shishiga o`tgan oydagi ko`rsatkichga nisbatan 0,3 f.d. kamroq hissa qo`shgan.

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarning o`shishi borasidagi yetakchilik meva-sabzavot mahsulotlariga tegishli bo`lib, oy davomida narxlar o`rtacha 4,0 %ga qimmatlashgan.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'tgan oyga nisbatan 2019 yilning fevral oyida asosiy turdagi meva-sabzavot mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %




Narxlarning qimmatlashishi bo'yicha ikkinchi o`rinni umumiy ovqatlanish muassasalari band etgan. O`tgan ikki oy davomida narxlar

ketma-ket 3,0 %dan yuqori darajada oshib borgan (yanvarda 3,4 %, fevralda 3,3 %).

2019 yilning fevral oyida narxlarning o`shishi borasidagi yetakchi uchlikning so`nggi pog`onasini sut mahsulotlari egallagan bo`lib, oy davomida narxlar o`rtacha 3,2 %ga qimmatlashgan.

2019 yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi boyicha sut mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

o'tgan oyga nisbatan, %



Sut mahsulotlari narxlari sezilarli darajada Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida (4,0 %) qimmatlashgan bo`lsa, Namangan viloyatida narxlarning eng minimal darajada oshganligi qayd etilgan (1,9 %).

2019 yilning fevral oyida asosiy guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi quyidagi ko`rinishda taqdim etilgan:

2019 yilning fevral oyida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi

o'tgan oyga nisbatan, %

100,9 %



Non mahsulotlari

101,5 %



Go'sht, parranda
go'shti va baliq

99,8 %



Tuxum

103,2 %



Sut
mahsulotlari

100,7 %



Yog' va
moylar

104,0 %



Meva va
sabzavotlar

102,3 %




Spirтли
ichimliklar

101,7 %



Shakar, choy va
boshqa oziq-ovqat
mahsulotlari

Biroq, har bir tovarlar guruhining salmoq vaznlarini inobatga olgan holda umumiy INI ko`rsatkichiga ta`sir darajasi bo`yicha yetakchi uchlikni meva va sabzavotlar (ta`siri 0,32 f.d.), go`sht mahsulotlari (0,16 f.d.) hamda sut mahsulotlari (0,11 f.d.) egallagan.



O'tgan oyga nisbatan 2019 yilning fevral oyida oziq-ovqat mahsulotlari guruhlarida narxlarning o'sishi va umumiy INIga ta'siri darajasi bo'yicha yetakchi uchlik



Go`sht mahsulotlari orasida kolbasa va dudlangan go`sht narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan bo`lsa, parranda go`shti mahsulotlari esa aksincha, biroz arzonlashgan.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'tgan oyga nisbatan 2019 yilning fevral oyida go'sht, parranda go'shti va baliq mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi %

101,1 %




Suyaksiz mol go'shti

101,0 %



Mol go'shti
(suyaksizdan tashqari)

100,5 %




Qo'y goshti

106,8 %



Qaynatilgan kolbasa

105,9 %



Yarim dudlangan kolbasa

103,6 %



Dudlangan cho'chqa go'shti

99,9 %



Parranda go'shti

101,9 %



Tirik va sovutilgan baliq

Ma`lumot uchun: suyaksizdan tashqari mol go`shti sezilarli darajada Samarqand viloyatida (2,6 %), suyaksiz mol go`shti narxlari Xorazm viloyatida (1,3 %) qimmatlashgan.

Qaynatilgan kolbasa Xorazm viloyatida (8,8 %), yarim dudlangan kolbasa narxlari esa Samarqand viloyatida (8,5 %) yuqori darajada oshgan.

Qoraqalpog`iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Farg`ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida parranda go`shti (sonlardan tashqari) narxlarining arzonlashganligi qayd etilgan.

Joriy yilning fevral oyi davomida kuzatilayotgan boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan spirtli ichimliklar narxlari (2,3 %) sezilarli darajada qimmatlashganligi ro`yxatga olingan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O`zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo`ljallari to`g`risida"gi PQ-4086 qarori asosida mamlakatda ishlab chiqariluvchi spirtli ichimliklarning aksiz soliq qiymatlari ko`tarildi:

- ✓ *tabiiy vino – 6 994 so`mdan 7 700 so`mgacha (1 dekalitr (dal));*
- ✓ *konyak – 73 997 so`mdan 92 500 so`mgacha (dal);*
- ✓ *pivo – 7 699 so`mdan 9 200 so`mgacha (dal);*
- ✓ *aroq va boshqa spirtli ichimliklar – 67571 so`mdan 84 500 so`mgacha (dal).*

O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo`mitasining 2018 yil 24 dekabrda №158, 2018-85-son qarorlari asosida spirtli ichimlik mahsulotlari uchun eng kam ulgurji-sotish va chakana narxlari qiymati belgilandi:*

(1 litr tayyor mahsulot narxi, so`mda)

Sotilayotgan mahsulot nomi	Korxonalarining minimal ulgurji-sotish narxlari	Minimal chakana narxlar
Vino	8 000	9 600
Konyak	29 000	34 600
Aroq va boshqa spirtli ichimliklar	19 400	23 200

**pivo mahsulotidan tashqari*

Shakar, choy, qandolat va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oy davomida o'rtacha 1,7 %ga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha o'tgan oyga nisbatan 2019 yilning fevral oyida shakar, choy va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi, %



Non mahsulotlari guruhidan yorma va dukkakli, makaron mahsulotlari narxlari oy davomida 2,4 %, mosh 2,3 %, guruch 1,9 %, tandir non 0,5 %, bug'doy uni 0,4 %ga qimmatlashgan.

Tuxum narxlarining arzonlashganligi mamlakatning beshta hududida qayt etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Navoiy, Samarqand va Farg'ona viloyatlari). Respublika bo'yicha narxlar o'rtacha 0,2 %ga arzonlashgan.

Quyidagi jadvalda 2018 yilning turli davrlariga nisbatan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhining uzoq muddatli iste`mol narxlari indeksi namoyish etilgan:

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi, %



Mahsulotlar nomi	2019 yil fevral:		2019 yilning yanvar-fevrali 2018 yilning yanvar-fevraliga nisbatan
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning fevraliga nisbatan	
Non mahsulotlari	102,9	128,3	128,2
Go`sht, parranda go`shti va baliq	102,4	119,5	119,9
Sut mahsulotlari	106,5	115,6	114,5
Tuxum	101,1	107,9	102,0
Yog` va moylar	102,2	108,9	108,8
Shakar, choy va boshqa mahsulotlar	102,9	104,9	103,7
Alkogolsiz ichimliklar	100,0	104,8	104,8

Mahsulotlar nomi	2019 yil fevral:		2019 yilning yanvar-fevrali 2018 yilning yanvar-fevraliga nisbatan
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning fevraliga nisbatan	
Spirтли ichimliklar	106,0	112,1	111,2
Umumiy ovqatlanish	106,9	118,7	117,0
Meva va sabzavotlar	112,6	105,5	105,3


2018 yilning dekabr oyiga nisbatan narxlarning ko`tarilishi bo`yicha yetakchi pog`onalarni meva-sabzavot mahsulotlari (12,6 %), umumiy ovqatlanish (6,9 %), sut mahsulotlari (6,5 %) va spirtli ichimliklar narxlari (6,0 %) band etgan.

Yillik narx o`zgarishlari tahliliga ko`ra (2019 yilning fevral oyi 2018 yilning fevral oyiga nisbatan), boshqa turdagi oziq-ovqatlar narxlariga nisbatan yuqori darajada non (28,3 %), go`sht (19,5 %), umumiy ovqatlanish (18,7 %) va sut mahsulotlari (15,6 %) oshgan.

Qayd etilayotgan davrlarda ushbu guruhga mansub ayrim mahsulotlar narxlari o`zgarishi oraliq`i sezilarli darajada bir-biridan farqlanadi. 2018 yilning fevral oyiga nisbatan guruch narxlari 1,5 baravardan yuqori (56,2 %), suyakli mol go`shti va qo`y go`shtlari deyarli 1,2 baravarga (mos ravishda 22,4 % va 19,6 %), suyaksiz mol go`shti 16,8 %ga ko`tarildi. 2019 yilning fevral oyida shakar narxlari 2018 yilning mos oyidagi ko`rsatkichga nisbatan 6,3 %ga pastroqni tashkil etdi.

Quyida 2018 yilning turli davrlariga nisbatan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari iste`mol narxlari indeksi taqdim etilgan:


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha
alohida turdagi oziq-ovqat
mahsulotlarining iste'mol narxlari
indeksi, %



Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

2019 yilning fevral oyida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarining 1,5 %ga qimmatlashishi, yig`ma INIning oy davomidagi o`shishiga 0,5 f.d.da ta`sir etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlarini indeksi, %



Yil boshidan ikki oy davomida nooziq-ovqat mahsulotlari narxlarini 2,0 %ga qimmatlashdi. Yillik tahliliy ma`lumotlarga ko`ra (2019 yilning fevral oyi 2018 yilning fevral oyiga nisbatan) ushbu guruh mahsulotlari narxlarini o`rtacha 10,7 %ga oshgan.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida nooziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarining iste`mol narxlarini indeksi dinamikasi quyidagi ko`rinishda taqdim etilgan:

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha alohida guruhga
mansub nooziq-ovqat mahsulotlarining
iste'mol narxlari indeksi, %

Nomi		o'tgan oyga nisbatan	
		2019 yil yanvar	2019 yil fevral
Kiyim-kechak		100,5	101,4
Oyoq kiyim		100,4	101,0
Mato va eshilgan iplar		100,3	101,8
Maishiy to'qimachilik mahsulotlari		101,2	102,1
Madaniy mollar		100,3	105,9
Qurilish materiallari		100,1	100,2
Shaxsiy gigiyena vositalari		100,5	100,5
Avtomobillar uchun yoqilg'i		100,7	99,9


Nooziq-ovqat mahsulotlari guruhi orasida aloqa vositalari (9,5 %), madaniy mollar (5,9 %), asosiy turdagi maishiy tovarlar va elektr uskunarlar (5,8 %), yuvish va tozalash vositalari (5,7 %), avtomobillar uchun ehtiyot qismlar (2,9 %), oshxona jihozlari (2,2 %), maishiy to'qimachilik mahsulotlari (2,1 %), kiyim-kechaklar (1,4 %) va oyoq kiyim (1,0 %) narxlarining qimmatlashganligi qayd etilgan.

Asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari (kiyim-kechak, oyoq kiyim, maishiy texnika, aloqa vositalari, madaniy mollar, avtomobillar uchun ehtiyot qismlar va h.k.) narxlarining o'sishi O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O`zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo`ljallari to`g`risida"gi PQ-4086 qarori asosida yangilangan bojxona to`lovlarining joriy qilinishi hamda chet el pul birliklariga nisbatan milliy valyutamiz qiymatining o`zgarishi natijasida sodir bo`ldi.

Ma`lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma`lumotlariga asosan, 2019 yilning 15 yanvaridan 15 fevraliga qadar so`mga nisbatan 1 AQSh dollari qiymati 8356,18 so`mdan 8395,15 so`mgacha (+ 0,5 %), 1 Rossiya rubli 124,97 so`mdan 127,67 so`mgacha (+2,2 %) qimmatlashib, 1 Yevro narxi 9582,03 so`mdan 9510,03 so`mgacha (-0,8 %) arzonlashdi.

**O'tgan oyga nisbatan 2019 yilning fevral oyida
nooziq-ovqat mahsulotlar guruhlarida
narxlarning o'sishi va umumiy INIga ta'siri darajasi
bo'yicha yetakchi uchlik, %**



2019 yilning fevral oyi o`tgan oyga nisbatan har bir tovarlar guruhining salmoq vaznlarini inobatga olgan holda narxlarning o`shishi va ularning umumiy INI ko`rsatkichiga ta`sir darajasi bo`yicha yetakchi o`rin asosiy turdagi maishiy tovarlar hamda elektr jihozlariga tegishlidir (umumiy INI o`shidagi ta`siri 0,10 f.d.).

Oy davomida avtomobillar uchun yoqilg`i narxlari o`rta hisobda 0,1 %ga arzonlashdi. Benzin va metan narxlarning barqaror saqlanishi barobarida propan narxlari 1,0 %ga arzonlashdi.

Asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhi 2019 yilning fevral oydagi narxlari 2018 yilning turli davrlariga nisbatan uzoq muddatli iste`mol narxlari indeksi quyidagi jadval shaklida namoyish etilgan:

O`zbekiston Respublikasi bo`yicha alohida turdagi nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi, %


	2019 yil fevral		2019 yilning yanvar-fevrali 2018 yilning yanvar-fevraliga nisbatan
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning fevraliga nisbatan	
Kiyim-kechak	101,9	110,1	109,6
Oyoq kiyim	101,4	108,7	108,6
Gazlama va eshilgan iplar	102,2	111,4	110,6
Maishiy to`qimachilik mahsulotlari	103,3	112,0	111,0
Madaniy mollar	106,2	106,4	103,4
Qurilish materiallari	100,2	107,9	111,7
Shaxsiy gigiyena mahsulotlari	101,0	105,6	105,9
Avtomobillar uchun yoqilg`i	100,6	118,7	118,8

2018 yilning dekabr oyiga nisbatan nooziq-ovqat mahsulotlarining boshqa guruhlariga mansub tovarlardan bosma nashr mahsulotlari (16,9 %), aloqa (10,1 %), yuvish va tozalash vositalari (6,4 %), asosiy turdagi maishiy tovarlar va elektr uskunalari (6,3 %) va madaniy mollar (6,2 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

Xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi

2019 yilning fevral oyida aholi uchun pullik xizmatlar sohasidagi narxlarning 0,8 %ga oshganligi, oy davomidagi umumiy yig`ma INIning ko`tarilishiga 0,2 f.d.da ta`sir etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi uchun pullik xizmatlarning iste'mol narxlari indeksi, %



Quyida aholiga pullik xizmatlarning asosiy guruhlari bo'yicha tariflarning o`zgarishi keltirib o`tilgan:

2019 yilning fevral oyida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy turdagi xizmatlarning iste'mol narxlarini indeksi



o'tgan oyga nisbatan, %

103,5 Maishiy xizmatlar

100,1 Uy-joy kommunal
xizmatlari

100,2 Yo'lovchi tashish
transporti xizmatlari

100,2 Aloqa xizmatlari

100,2 Madaniyat muassasalari
xizmatlari


101,4 Sport xizmatlari

101,9 Dam olish xizmatlari

101,1 Tibbiy xizmatlar

Tadbirkorlik sub`ektlari xarajatlarning ortishi natijasida asosiy turdagi maishiy xizmatlar tariflarida narxlarining oshishi kuzatildi. Sezilarli darajada maishiy texnika vositalarini ta`mirlash (8,1 %), transport vositalarini ta`mirlash va texnik xizmat ko`rsatish (7,6 %), hammom va dush xizmatlari (4,5 %), sartaroshxona va go`zallik saloni xizmatlari (2,4 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Alohida turdagi maishiy xizmatlarning iste'mol narxlarini indeksi, %



2019 yilning fevral oyida tariflarning o`shishi borasidagi keyingi pog`onalarni dam olish (1,9 %) hamda sport (1,4 %) xizmatlari narxlari egallagan.

2019 yilning fevral oyida dam olish xizmatlarining iste'mol narxlari indeksi

o'tgan oyga nisbatan

Turizm sohasi xizmatlari		
101,5 %	Andijon viloyati	110,2 %
	Namangan viloyati	106,7 %
Mehmonxona xizmatlari		
100,3 %	Andijon viloyati	102,5 %
	Sirdaryo viloyati	103,5 %
Sihatgoh va dam olish maskanlari xizmatlari		
103,0 %	Buxoro viloyati	117,3 %
	Qashqadaryo viloyati	104,9 %
	Surxondaryo viloyati	123,6 %


Dam olish xizmatlari narxlarining oshganligi Surxondaryo (11,3 %), Buxoro (8,3 %), Andijon (2,8 %), Qashqadaryo (2,4 %), Namangan (1,4 %) va Sirdaryo (1,0 %) viloyatlarida qayd etilgan.

Oy davomida sport xizmatlari Andijon (7,1 %), Xorazm (6,7 %) va Namangan (3,9 %) viloyatlarida qimmatlashgan.

2019 yilning fevral oyida narxlarning o'sishi va uning umumiy INIga ta'sir darajasi bo'yicha yetakchilik ham maishiy xizmatlar guruhiga tegishlidir (0,12 f.d.) Keyingi o'rinlarni esa tibbiy xizmatlar (0,02 f.d.), uy-joy kommunal xizmatlari va yo'lovchi tashish transporti xizmatlari narxlari (0,01 f.d.) band etgan.




O'tgan oyga nisbatan 2019 yilning fevral oyida xizmatlar guruhlari orasida tariflarning o'sishi va umumiy INIga ta'siri darajasi bo'yicha yetakchi uchlik, %



Oy davomida yo'lovchi tashish transporti xizmatlari narxlari o'rtacha 0,2 %ga oshgan.

Jizzax hamda Xorazm viloyatlarida taksi xizmatlari (mos ravishda 13,2 % va 2,3 %), yo'nalishli taksi xizmatlari narxlari Toshkent shahrida (4,2 %) qimmatlashgan. Shaharlararo qatnovda harakatlanuvchi avtobuslardagi yo'l haqi Navoiy viloyatida (6,0 %) oshgan.

2019 yilning fevral oyi uchun O'zbekiston Respublikasi
bo'yicha yo'lovchi tashish transporti xizmatlarning
iste'mol narxlari indeksi, %



Kuzatilayotgan yo`nalishlar bo`yicha uzoq masofaga qatnovchi poezdlar hamda aviatashuv chiptalari narxlari chet el valyutalar qiymatining o`zgarishi hisobiga arzonlashgan.

Quyidagi jadvalda 2018 yilning turli davrlariga nisbatan joriy yilning fevral oyidagi asosiy turdagi xizmatlar guruhining iste`mol narxlari indeksi namoyish etilgan:

**O`zbekiston Respublikasi bo`yicha aholi uchun alohida turdagi
xizmatlarning iste`mol narxlari indeksi, %**

	2019 yil fevral		2019 yil yanvar-fevral 2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan
	2018 yilning dekabriga nisbatan	2018 yilning fevraliga nisbatan	
Maishiy xizmatlar	104,7	115,4	113,8
Uy-joy kommunal xizmatlari	100,2	124,9	125,2
Yo`lovchi transporti xizmatlari	101,1	113,1	114,2
Aloqa xizmatlari	100,3	110,0	110,8
Madaniyat muassasalari xizmatlari	100,8	106,1	106,0
MTM xizmatlari	100,0	95,1	95,1
Ta`lim xizmatlari	100,5	115,8	115,7
Sport xizmatlari	102,0	116,5	115,6
Dam olish xizmatlari	106,1	110,7	109,7
Tibbiy xizmatlar	101,3	107,7	107,1

2019 yilning yanvar-fevral oylari davomida dam olish xizmatlari (6,1 %), 2018 yilning fevral oyiga nisbatan esa uy-joy kommunal sohasi xizmatlari (24,9 %) narxlari sezilarli darajada qimmatlashgan.

Narxlar statistikasi boshqarmasi

71-230-80-36

71-230-81-74